



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№4


ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

4-jild
4-son
Aprel, 2026

April, 2026
Volume 4
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



SUG'URTA FAOLIYATIDA HISOB VA TAHLILNING ZAMONAVIY USULLARI HAMDA ULARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Xushmuradov Oman

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ УЧЕТА И АНАЛИЗА В СТРАХОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ВНЕДРЕНИЯ

Хушмурадov Оман

MODERN METHODS OF ACCOUNTING AND ANALYSIS IN INSURANCE ACTIVITIES AND PROSPECTS FOR THEIR IMPLEMENTATION

Xushmuradov Oman

Received: April 2, 2026 Revised: April 10, 2026 Accepted: April 13, 2026 Published: May 1, 2026

Annotatsiya: maqolada sug'urta faoliyatida hisob va tahlilning ahamiyatli tomonlari zamonaviy tahlil metodlari vositasida asoslab berilgan. Shuningdek, sug'urta mukofotlari, sug'urta tovonlari hamda xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Sug'urta faoliyatida zamonaviy tahlil usullarini joriy etish istiqbollari va ularning amaliy qo'llanilishi bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: hisob, tahlil, buxgalteriya hisobi, sug'urta, sug'urta mukofoti, sug'urta tovonlari, rentabellik, moliyaviy ko'rsatkichlar, mablag'.

Аннотация: в статье обоснованы значимые аспекты учета и анализа в страховой деятельности с использованием современных методов анализа. Также проанализирована взаимосвязь между страховыми премиями, страховыми выплатами и затратами, а также рассчитаны показатели рентабельности. Представлены научные выводы по перспективам внедрения современных методов анализа в страховой деятельности и их практическому применению.

Ключевые слова: учет, анализ, бухгалтерский учет, страхование, страховая премия, страховое возмещение, рентабельность, финансовые показатели, средства

Abstract: the article substantiates the significant aspects of accounting and analysis in insurance activities using modern analytical methods. It also examines the relationship between insurance premiums, insurance claims, and expenses, and calculates profitability indicators. Scientific conclusions are presented regarding the prospects for implementing modern analytical methods in insurance activities and their practical application.

Keywords: accounting, analysis, financial accounting, insurance, insurance premium, insurance claim, profitability, financial indicators, funds.

■ KIRISH

Global iqtisodiyotning chuqur integratsiyalashuvi va moliyaviy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida sug'urta xizmatlari moliyaviy tizimning strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. U nafaqat iqtisodiy subyektlarni turli xavf-xatarlardan himoya qilish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya jarayonlarini faollashtirish hamda moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlashda muhim institutsional mexanizm sifatida xizmat qiladi. Jahon amaliyoti tahlillari shuni

ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda sug'urta bozori iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy drayverlardan biri bo'lib, moliyaviy bozorlar infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida shakllangan.

Zamonaviy sharoitda sug'urta sektorining roli nafaqat kengayib bormoqda, balki uning iqtisodiyotdagi ta'sir doirasi ham sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Sug'urta kompaniyalari tomonidan shakllantirilayotgan moliyaviy resurslar investitsiya faoliyatini rag'batlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda tizimli xavflarni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga,



sug'urta xizmatlari bozori iqtisodiy subyektlar faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy va operatsion xavflarni boshqarishning ilg'or instrumentlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Bunday sharoitda sug'urta faoliyatining moliyaviy natijalarini aniq, ishonchli va shaffof hisobga olish hamda ularni ilmiy asoslangan tahlil qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Xususan, raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta sohasida hisob va tahlilning an'anaviy yondashuvlari etarli samara bermasligi kuzatilmoqda. Shu bois, katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt, prediktiv analitika va risk-modellash tirish kabi zamonaviy usullarni sug'urta faoliyatiga joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy natijalarini baholashda aniqlikni oshirish, xavflarni oldindan prognoz qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida sug'urta bozorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda sug'urta xizmatlari bozorini takomillashtirish, institutsional muhitni yaxshilash va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida mustahkam huquqiy-me'yoriy baza shakllantirilgan. Xususan, 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun [1] hamda keyingi yillarda sohaga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sug'urta bozorining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, milliy sug'urta bozorining xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyalashuvi, xalqaro standartlar (jumladan, MHXS asosida moliyaviy hisob yuritish)ni joriy etish hamda hisob va tahlil tizimini global talablar darajasiga olib chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonlarda sug'urta kompaniyalari faoliyatida zamonaviy hisob va tahlil usullarini joriy etish, ularning moliyaviy natijalarini kompleks baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining Moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga asosan, 2026-yilning dekabr oyidan sug'urta tashkilotlari MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga o'tishi bo'yicha vazifalar belgilangan [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sug'urta faoliyatida hisob va tahlilning zamonaviy usullarini tadqiq etish, ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari va istiqbollarini aniqlash mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta faoliyatida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy natijalarni aks ettirish masalalari zamonaviy iqtisodiy sharoitda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tadqiqotchi F.T. Temirov ta'kidlaganidek, "bugungi kunda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi tartiblari hamda ularning faoliyatini xalqaro standartlar asosida haqqoniy aks ettirish, sug'urta biznesning potensial qiymatini aniqlash va baholash, hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qator muammolar mavjud" [3]. Xususan, sug'urta mukofotlari va sug'urta tovonlari o'rtasidagi nisbatni aniqlash, sug'urta zaxiralarini to'g'ri shakllantirish hamda sug'urta biznesining potensial qiymatini baholash jarayonlarida metodik va amaliy kamchiliklar mavjudligi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot bazasining etarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini isloh qilish masalalari bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, B.K. Hamdamov va K.Sh. Ibragimovlarning ta'kidlashicha, "O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilishning asosiy maqsadlari iqtisodiy jarayonlarni samarali tartibga solish tizimini joriy etish uchun zarur sharoitlarni yaratish, milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) yaqinlashtirish hamda axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishdan iboratdir" [4]. Shuningdek, mualliflar tomonidan iqtisodiy rivojlanishning retrospektiv tendensiyalarini o'z vaqtida aniqlash va baholash tizimini shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Bir guruh horijlik tadqiqotchilarning fikricha, "sug'urta annuitetlarini logistik hisoblash jarayonida natijalarning noaniqligi (gisterezis hodisasi) kuzatiladi: ya'ni ma'lum bir qiymatning kelajakdagi qiymati hisoblab chiqilib, so'ngra olingan natijaning joriy qiymati aniqlanganda, ular o'zaro mos kelmaydi. Ushbu noaniqlik, ayniqsa, resurs me'yorlari nisbatan past bo'lgan holatlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi" [5]. Mazkur hodisa shundan iboratki, dastlab ma'lum bir ko'rsatkichning kelajakdagi qiymati aniqlanib, so'ng ushbu qiymatning joriy (diskontlangan) miqdori hisoblab chiqilganda, olingan natijalar o'zaro mos kelmasligi mumkin. Bu holat sug'urta hisob-kitoblarida vaqt omili, foiz stavkalari hamda resurslar qiymatining o'zgaruvchanligi bilan izohlanadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Sug'urta mukofotlari, sug'urta tovonlari hamda xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda statistik tahlil usullari, jumladan variatsion qatorlar, o'rtacha miqdorlar va nisbiy ko'rsatkichlar hisoblandi. Shuningdek, sug'urta faoliyati samaradorligini baholashda rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanib, ularning dinamikasi tahlil qilindi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda sug'urta bozorining keng ko'lamda rivojlanishi sug'urta xizmatlarining



takomillashib borishi, sug'urta kompaniyalari faoliyatining kengayishi hamda sug'urta fondlarini shakllantirish ko'rsatkichlarining o'sishi bilan izohlanadi. Mamlakatda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi sug'urta bozorining institutsional va iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga turtki bermoqda.

Sug'urta bozori – bu sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar va ularning mijozlari o'rtasida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar majmuasini ifodalovchi iqtisodiy muhit hisoblanadi. Sug'urta bozorining o'ziga xos "tovari" sifatida sug'urtalovchi tomonidan taqdim etiladigan sug'urta himoyasi yoki sug'urta xizmati namoyon bo'ladi.

Sug'urta xizmati o'z navbatida iste'mol qiymati va narx ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Sug'urta xizmatining iste'mol qiymati sug'urta himoyasini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy va tashkiliy jarayonlar majmuasidan iborat. Sug'urta hodisasi yuz berganda, sug'urta shartnomasiga muvofiq ravishda sug'urta to'lovi amalga oshirilib, sug'urta himoyasining amaliy funksiyasi namoyon bo'ladi.

Sug'urta xizmatining narxi esa sug'urta mukofoti (sug'urta badali) shaklida namoyon bo'ladi. Bu mablag' sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta himoyasini olish maqsadida sug'urta kompaniyasiga to'lanadi. Sug'urta tarifi sug'urta xizmatining nisbiy narxini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u sug'urta summasining sug'urta mukofotiga bo'lgan nisbati asosida shakllanadi.

Sug'urta mukofoti odatda sug'urta shartnomasi tuzilayotgan paytda belgilanadi va shartnomaning amal qilish davri mobaynida o'zgarmasdan saqlanadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, sug'urta mukofotining miqdori sug'urta kompaniyasining barqaror faoliyat yuritishi uchun etarli moliyaviy resurslarni shakllantirishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, sug'urta mukofoti quyidagi asosiy elementlarni qamrab olishi kerak:

- sug'urta davri mobaynida kutiladigan sug'urta tovonlarini qoplash;
- ehtimoliy sug'urta xavflarini qoplash uchun zaxira fondlarini shakllantirish;
- sug'urta kompaniyasining operatsion va ma'muriy xarajatlarini qoplash;
- sug'urta kompaniyasi faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun muayyan miqdordagi foydani shakllantirish.

Shu tariqa, sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi sug'urta xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini to'g'ri anglash, sug'urta tariflarini ilmiy asosda belgilash hamda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta kompaniyalari foydani sug'urta mukofoti tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish amaliyotidan bosqichma-bosqich voz kechmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad foydani sug'urta faoliyatini samarali va ratsional tashkil etish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish hamda investitsiya faoliyatini rivojlantirish orqali ta'minlashdan iborat.

Sug'urta xizmatlari narxi ham boshqa bozor xizmatlari narxi kabi talab va taklif ta'siri ostida

shakllanadi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Sug'urta xizmati narxining pastki chegarasi sug'urta munosabatlaridagi ekvivalentlik tamoyilidan kelib chiqadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, sug'urta mukofotlari tushumi shartnoma amal qiluvchi davrda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sug'urta to'lovlari va xarajatlar summasiga mos kelishi lozim. Bunday holatda sug'urta kompaniyasi sug'urta operatsiyalari bo'yicha qo'shimcha foyda olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Sug'urta xizmati narxining yuqori chegarasi esa, asosan, ikki omil bilan belgilanadi:

- sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab hajmi;
- jamg'arma mablag'lari bo'yicha bank foiz stavkalari darajasi.

Bank foiz stavkalari sug'urta faoliyatiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, bank foizlari bilan sug'urta xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini o'zaro taqqoslash mijozlarga o'z mablag'larini joylashtirish usulini tanlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari amalga oshirilgunga qadar vaqtincha erkin bo'lib turgan mablag'lar qonunchilik talablariga muvofiq turli aktivlarga investitsiya qilinadi. Jumladan, ular qimmatli qog'ozlarga, ko'chmas mulk obyektlariga yoki boshqa moliyaviy aktivlarga yo'naltirilishi mumkin. Mazkur investitsiyalardan olingan daromadning ma'lum qismi sug'urta qildiruvchilarga bonuslar yoki tariflar bo'yicha chegirmalar shaklida taqdim etilishi mumkin.

Sug'urta xizmatining taklif etilayotgan narxi muayyan sug'urta kompaniyasi faoliyatining samaradorligi, boshqaruv darajasi va moliyaviy holati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Sug'urta mukofoti sug'urta xizmatining narxini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u sug'urta kompaniyasining barcha funksiyalarini moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qiladi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, odatda, tashqi iqtisodiy muhit o'zgarishlariga moslashish imkoniyatini ta'minlovchi ikki asosiy ko'rsatkichga asoslanadi. Birinchisi – to'lov qobiliyati, ya'ni kompaniyaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyati. Ikkinchisi esa – sug'urta kompaniyasining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydigan moliyaviy barqarorlik darajasidir.

To'lov qobiliyati sug'urta kompaniyasining eng muhim ishonchli ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, uning moliyaviy barqarorligini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur ko'rsatkich yirik mijozlar uchun sug'urta kompaniyasining ishonchliligi va investitsion jozibadorligini baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi esa uning moliyaviy faoliyatida ishtirok etayotgan moliyaviy resurslar va zaxiralar miqdori hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu holat sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish va investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy imkoniyatlari va barqarorligining asosiy kafolati ularning o'z mablag'larini va jalb qilingan moliyaviy resurslarining



etarli darajada ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Sug'urta tashkilotlarining o'z mablag'lari tarkibiga odatda ustav kapitali, xazira kapitali, qo'shimcha kapital hamda taqsimlanmagan foyda kabi moliyaviy manbalar kiradi.

Sug'urta kompaniyalarining o'z mablag'lari etarli darajada bo'lishi ularning to'lov qobiliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu birinchi navbatda sug'urta xaziralarning belgilangan normativ darajadan kam bo'lmasligi va investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi orqali namoyon bo'ladi.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini ta'minlashning muhim sharti aktivlar va majburiyatlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlashdan iborat. Ushbu holat amaliyotda to'lov qobiliyati marjasi orqali baholanadi. To'lov qobiliyati marjasi sug'urta kompaniyasining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniyatini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlarini amalga oshirish jarayonida sug'urta kompaniyalari, boshqa tadbirkorlik subyektlari kabi, foyda olishni asosiy iqtisodiy maqsad sifatida belgilaydilar. Moliyaviy natija, ya'ni foyda miqdori sug'urta kompaniyasining umumiy daromadlari va

amalga oshirilgan xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sug'urta tashkilotlarida sug'urta mukofotlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibida ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, amaliyotda sug'urta tashkilotlarining daromadlari buxgalteriya hisobida asosan "sug'urta mukofotlari" deb nomlangan yagona modda doirasida hisobga olinmoqda. Bu esa sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy natijalarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini cheklab qo'yadi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "O'zagrosug'urta" AJning Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimidagi faoliyati 2021–2025 yillar davomida ijobiy dinamika bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, 2025-yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 2022-yilga nisbatan 3,1 mlrd so'mga, 2023-yilga nisbatan 2,1 mlrd so'mga hamda 2024-yilga nisbatan 2,4 mlrd so'mga oshgan. Bu holat kompaniya faoliyati samaradorligi oshganligini ko'rsatuvchi muhim ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, mazkur ijobiy natijalarga erishishda ayrim tuman sug'urta bo'limlarining hissasi alohida ahamiyatga ega ekanligi kuzatiladi.

1-jadval

"O'zagrosug'urta" AJning Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida sug'urta mukofotlari tushumi dinamikasi [6].

T/r	Sugʻurta boʻlimlari	Sugʻurta mukofotlari (ming soʻmda)								
		2021	2022	2023	2024	2025	2025 yilda avvalgi yillarga nisbatan farqi (+;-)			
							2021	2022	2023	2024
1	Viloyat filiali	6 819 219,8	206 263,6	29 467,6	14 876,0	47 705,6	-6 771 514,2	-158 558,0	18 238,0	32 829,6
2	Gʻuzor	385 804,3	196 358,4	217 352,1	242 049,1	282 914,1	-102 890,2	86 555,7	65 562,0	40 865,0
3	Dehqonobod	283 497,4	208 775,9	229 417,2	217 526,2	294 793,4	11 296,0	86 017,5	65 376,2	77 267,2
4	Qarshi	286 767,5	102 137,6	81 770,2	102 225,6	116 213,1	-170 554,4	14 075,5	34 442,9	13 987,5
5	Koson	322 484,2	260 497,7	296 232,7	291 728,2	318 728,7	-3 755,5	58 231,0	22 496,0	27 000,5
6	Qamashi	310 630,4	260 787,3	149 769,0	148 933,8	589 843,1	279 212,7	329 055,8	440 074,1	440 909,3
7	Mirishkor	344 615,5	128 293,9	53 238,9	30 059,0	49 391,7	-295 223,8	-78 902,2	-3 847,2	19 332,7
8	Kitob	384 519,2	225 796,4	180 686,2	157 852,3	167 076,1	-217 443,1	-58 720,3	-13 610,1	9 223,8
9	Chiroqchi	239 918,3	277 764,2	34 478,4	70 374,3	88 842,0	-151 076,3	-188 922,2	54 363,6	18 467,7
10	Muborak	363 951,7	346 288,6	835 231,8	611 921,1	1 061 896,6	697 944,9	715 608,0	226 664,8	449 975,5
11	Shahrisabz	341 769,5	218 860,8	331 350,2	259 942,6	485 797,7	144 028,2	266 936,9	154 447,5	225 855,1
12	Nishon	351 061,0	430 564,2	507 521,4	326 440,5	928 456,2	577 395,2	497 892,0	420 934,8	602 015,7
13	Yakkabogʻ	732 528,7	201 992,2	149 527,0	137 383,9	185 398,9	-547 129,8	-16 593,3	35 871,9	48 015,0
14	Kasbi	435 130,6	254 039,3	287 121,8	370 900,7	324 734,8	-110 395,8	70 695,5	37 613,0	-46 165,9
15	Qarshi shahar	535 643,1	415 013,9	1 315 075,9	1 402 116,9	1 604 253,8	1 068 610,7	1 189 239,9	289 177,9	202 136,9
16	Shahrisabz shahar	170 460,6	110 453,3	222 300,6	190 145,1	440 048,3	269 587,7	329 595,0	217 747,7	249 903,2
	Jami	12 308 001,8	3 843 887,3	4 920 541,0	4 574 475,3	6 986 094,1	-5 321 907,7	3 142 206,8	2 065 553,1	2 411 618,8

Jumladan, Nishon tumani sug'urta bo'limi 602,1 mln so'm, Muborak tumani 449,9 mln so'm va Qamashi tumani 440,9 mln so'm miqdorida sug'urta mukofotlarini yig'ish orqali kompaniya faoliyati samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shgan.

Biroq o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, amalda sug'urta kompaniyalarida yig'ilgan sug'urta mukofotlari buxgalteriya hisobida va

hisobotlarida yagona "sug'urta mukofotlari" moddasida aks ettirib kelinmoqda. Bu esa sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy natijalarini chuqur tahlil qilish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklab qo'yadi.

Aslida, sug'urta mukofotlari tarkibini batafsil tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning tarkibida sug'urta shartnomalari bo'yicha tushgan mablag'lar bilan bir qatorda boshqa qator tushumlar ham mavjud.



Jumladan, birlamchi sug'urta, qo'shimcha sug'urta va qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta mukofotlari (avanslari), qayta sug'urtalash shartnomalarini rag'batlantirish to'lovlari, qo'shimcha sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchilarga to'langan rag'batlantiruvchi to'lovlar, sug'urta shartnomasi shartlarini bajarmaslik holatlari uchun ixtiyoriy tarzda yoki sud qarorlari asosida undirilgan jarima mablag'lari, sug'urta agentlari va brokerlariga to'langan xizmat haqlari hamda syurveyer xizmatlari (sug'urta obyektlarining haqiqiy holatini baholash, xavf va ehtimoliy zarar darajasini aniqlash xizmatlari) bilan bog'liq tushumlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalarida shakllantirilgan zaxira mablag'larini investitsiya faoliyatiga yo'naltirish natijasida olinadigan qo'shimcha daromadlar ham sug'urta faoliyatining umumiy moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzilgan majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalari asosida sug'urta mukofotlari shakllanib, ularning tarkibida turli iqtisodiy manbalardan tushgan mablag'lar mavjud. Mazkur holat sug'urta mukofotlarining tarkibiy tuzilmasini yanada chuqur tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

“O'zagrosug'urta” AJning Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida tuzilgan sug'urta shartnomalari dinamikasi [6].

T/r	Sugʻurta boʻlimlari	Sugʻurta shartnomalari soni (birlida)								
		2021	2022	2023	2024	2025	2025 yilda avvalgi yillarga nisbatan farqi (+;-)			
							2021	2022	2023	2024
1	Viloyat filiali	3 597,0	1 975,0	346,0	1,0	2,0	-3 595,0	-1 973,0	-344,0	1,0
2	Gʻuzor	10 022,0	5 719,0	4 483,0	4 282,0	2 756,0	-7 266,0	-2 963,0	-1 727,0	-1 526,0
3	Dehqonobo	4 962,0	4 862,0	4 378,0	3 471,0	2 703,0	-2 259,0	-2 159,0	-1 675,0	-768,0
4	Qarshi	8 368,0	1 337,0	1 097,0	1 238,0	296,0	-8 072,0	-1 041,0	-801,0	-942,0
5	Koson	12 962,0	18	15	4 729,0	2 807,0	-10	-15	-12	-1 922,0
6	Qamashi	4 725,0	2 941,0	2 402,0	2 491,0	531,0	-4 194,0	-2 410,0	-1 871,0	-1 960,0
7	Mirishkor	3 282,0	1 854,0	310,0	133,0	82,0	-3 200,0	-1 772,0	-228,0	-51,0
8	Kitob	11 160,0	7 212,0	3 682,0	3 633,0	2 233,0	-8 927,0	-4 979,0	-1 449,0	-1 400,0
9	Chiroqchi	1 306,0	1 830,0	776,0	1 253,0	121,0	-1 185,0	-1 709,0	-655,0	-1 132,0
10	Muborak	7 406,0	8 058,0	4 486,0	5 304,0	2 052,0	-5 354,0	-6 006,0	-2 434,0	-3 252,0
11	Shahrisabz	5 911,0	3 494,0	5 045,0	4 186,0	3 538,0	-2 373,0	44,0	-1 507,0	-648,0
12	Nishon	4 220,0	3 301,0	7 181,0	3 150,0	2 532,0	-1 688,0	-769,0	-4 649,0	-618,0
13	Yakkabogʻ	8 832,0	3 431,0	2 011,0	1 893,0	685,0	-8 147,0	-2 746,0	-1 326,0	-1 208,0
14	Kasbi	10 560,0	7 839,0	8 849,0	5 799,0	3 605,0	-6 955,0	-4 234,0	-5 244,0	-2 194,0
15	Qarshi shahar	5 713,0	5 160,0	8 499,0	6 043,0	5 105,0	-608,0	-55,0	-3 394,0	-938,0
16	Shahrisabz shahar	2 644,0	1 120,0	1 494,0	1 323,0	1 664,0	-980,0	544,0	170,0	341,0
	Jami	105 670,0	78 737,0	70 262,0	48 929,0	30 712,0	-74 958,0	-48 025,0	-39 550,0	-18 217,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, muayyan sug'urta kompaniyasi bo'yicha so'nggi yillarda tuzilgan sug'urta shartnomalari sonining kamayib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2025-yilga kelib tuzilgan barcha majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalari soni ancha past ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan 18217 taga kamaygani aniqlandi. Bu holat sug'urta kompaniyasi faoliyatidagi muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, global sug'urta bozoridagi raqobat sharoitida uning likvidligini oshirish maqsadida sug'urta mukofotlari hajmini ko'paytirish va har bir tuzilgan sug'urta shartnomasining daromadligini

oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari daromadlari tarkibida “sug'urta mukofotlari”dan tashqari yana bir qator tushum manbalari mavjud. Shu sababli mazkur tushumlarni buxgalteriya hisobida alohida subhisobvaraqlarda hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy natijalarini yanada aniq va chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Odatda sug'urta kompaniyalarida har bir hisobot yili yakunida moliyaviy natijalar buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Bunda buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalangan holda sug'urta



xizmatlari bo'yicha olingan balans foydasining ustav kapitaliga nisbati yoki sug'urta faoliyati foydasining yig'ilgan sug'urta mukofotlari summasiga nisbati orqali rentabellik (foydalilik) darajasi hisoblab chiqiladi (3-jadval).

“Sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) va sug'urta brokerining bosh buxgalter “Buxgalteriya

hisobi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak”, [7] bu esa sug'urta faoliyatida hisob va tahlil jarayonlarining ishonchligini ta'minlash, moliyaviy ko'rsatkichlarni aniq shakllantirish hamda zamonaviy tahlil usullarini samarali qo'llash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

3-jadval

“O'zagrosug'urta” AJ Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida sug'urta mukofoti to'voni, xarajatlari va rentabellik tahlillari [6]

T/ r	Sug'urta bo'limlari	2024-yil							2025-yil						
		Sug'urta mukofoti	Boshqa daromadlar	Jami tushumlar	Sug'urta to'voni	Xarajalar	Jami xarajalar	Rentabellik (%) farqi (+,-)	Sug'urta mukofoti	Boshqa daromadlar	Jami tushumlar	Sug'urta to'voni	Xarajalar	Jami xarajalar	Rentabellik (%) farqi (+,-)
1	2	3	4	5=3+4	6	7	8=6+7	9	10	11	12=10+11	12	13	14=12+13	15
1	Viloyat filiali	14 876,0	8818 2,1	103058 ,1	155,0	511529 3,0	511544 8,0	- 501238 9,9	47705, 6	25058 7,4	298293 ,0	11490 7,4	617042 0,5	628532 7,9	- 598703 4,9
2	G'uzor	242049 ,1	0,0	242049 ,1	31074, 9	0,0	31074, 9	210974, 2	282914 ,1	0,0	282914 ,1	14353, 8	0,0	14353, 8	268560, 3
3	Dehqonobod	217526 ,2	0,0	217526 ,2	21011, 3	0,0	21011, 3	196514, 9	294793 ,4	0,0	294793 ,4	16201, 5	0,0	16201, 5	278591, 9
4	Qarshi	102225 ,6	0,0	102225 ,6	3282,1	0,0	3282,1	98943,5	116213 ,1	0,0	116213 ,1	2636,5	0,0	2636,5	113576, 6
5	Koson	291728 ,2	0,0	291728 ,2	49600, 0	0,0	49600, 0	242128, 7	318728 ,7	0,0	318728 ,7	23473, 8	0,0	23473, 8	295254, 9
6	Qamashi	148933 ,8	0,0	148933 ,8	70003, 1	0,0	70003, 1	78930,7	589843 ,1	0,0	589843 ,1	33138, 5	0,0	33138, 5	556704, 6
7	Mirishkor	30 059,0	0,0	30059, 0	12015, 8	0,0	12015, 8	18043,2	49391, 7	0,0	49391, 7	0,0	0,0	0,0	49391,7
8	Kitob	157852 ,3	0,0	157852 ,3	25240, 4	0,0	25240, 4	132611, 9	167076 ,1	0,0	167076 ,1	40388, 2	0,0	40388, 2	126687, 9
9	Chiroqchi	70 374,3	0,0	70374, 3	0,0	0,0	0,0	70374,3	88842, 0	0,0	88842, 0	0,0	0,0	0,0	88842,0
10	Muborak	611921 ,1	0,0	611921 ,1	65500, 0	0,0	65500, 0	546421, 6	106189 ,6	0,0	106189 ,6	61570, 9	0,0	61570, 9	100032 5,7
11	Shahrisabz	259942 ,6	0,0	259942 ,6	92750, 0	0,0	92750, 0	167192, 6	485797 ,7	0,0	485797 ,7	49474, 4	0,0	49474, 4	436323, 3
12	Nishon	326440 ,5	0,0	326440 ,5	37 790,6	0,0	37790, 6	288649, 9	928456 ,2	0,0	928456 ,2	225,0	0,0	225,0	928231, 2
13	Yakkabog'	137383 ,9	0,0	137383 ,9	36 241,8	0,0	36241, 8	101142, 1	185398 ,9	0,0	185398 ,9	20503, 5	0,0	20503, 5	164895, 4
14	Kasbi	370900 ,7	0,0	370900 ,7	13 853,7	0,0	13853, 7	357047, 0	324734 ,8	0,0	324734 ,8	30191, 9	0,0	30191, 9	294542, 9
15	Qarshi shahar	140211 6,9	0,0	140211 6,9	258 486,4	0,0	258486 ,4	114363 0,5	160425 3,8	0,0	160425 3,8	33445, 4	0,0	33445, 4	157080 8,4
16	Shahrisabz shahar	190 145,1	0,0	190145 ,1	0,0	0,0	0,0	190145, 3	440048 ,3	0,0	440048 ,3	18363, 0	0,0	18363, 0	421685, 3
	Jami	457447 5,3	8818 2,1	466265 7,4	71700 5,1	511529 3,0	583229 8,1	- 116964 0,7	698609 4,1	25058 7,4	723668 1,5	45887 3,8	617042 0,5	662929 4,3	607387, 2

Ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra, “O'zagrosug'urta” AJning Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida foydalilik darajasi nisbatan past bo'lib, u 8,4 foizni tashkil etgan. Bu esa sug'urta kompaniyasi faoliyati samaradorligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuni hisobga olgan holda, mazkur aksiyadorlik jamiyati kelgusida moliyaviy natijalarini yaxshilash, to'lov qobiliyatini mustahkamlash va rentabellik darajasini barqarorlashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi anderayterlar faoliyati samaradorligini oshirish. Bu esa sug'urta xizmatlarini tezkor, aniq va iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etish orqali ishlab topilgan sug'urta mukofotlari hajmini ko'paytirishga hamda sug'urta to'lovlari va xarajatlarga nisbatan yuqori moliyaviy natijaga erishishga xizmat qiladi;

- sug'urta faoliyati natijadorligini oshirish maqsadida anderayting natijalarini yaxshilash, shuningdek sug'urta zaxira mablag'larini samarali

investitsiya qilish orqali qo'shimcha daromad manbalarini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Zamonaviy sharoitda sug'urta bozori barqarorligini ta'minlash va uning samarali faoliyat yuritishini tashkil etish sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi hamda to'lov qobiliyatiga bevosita bog'liqdir. Sug'urta kompaniyalari tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlarning hajmi va ularning uzoq muddatli xususiyati sug'urta zaxiralarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish masalasini yanada dolzarb etadi. Shu bois, sug'urta zaxiralarini va to'lov qobiliyatini aniqlash metodikasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sug'urta faoliyatini tartibga solishda Solvency II tizimi keng qo'llanilmoqda. Mazkur tizim sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u riskga asoslangan yondashuvni o'zida mujassam etadi. Solvency II



talablariga ko'ra, sug'urtalovchilar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun etarli miqdorda kapitalga ega bo'lishi, risklarni samarali boshqarishi va o'z faoliyati yuzasidan ochiq hamda shaffof hisobotlarni taqdim etishi lozim.

Sug'urta xaziralari shakllantirishda Solvency II yondashuvi aktuar hisob-kitoblar asosida ehtimoliy yo'qotishlarni aniqlashni nazarda tutadi. Bu esa sug'urta kompaniyalariga kelajakdagi to'lovlar hajmini aniqroq prognoz qilish imkonini beradi. An'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, ushbu tizim risklarning turli xil ko'rinishlarini (bozor riski, kredit riski, operatsion risk va boshqalar) kompleks baholashni talab etadi.

To'lov qobiliyatini baholashda esa Solvency II tizimida ikkita asosiy ko'rsatkich – minimal kapital talabi (MCR) va to'lovga qobiliyat kapitali talabi (SCR) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar sug'urta kompaniyasining ekstremal sharoitlarda ham o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Natijada sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasida ishonch mustahkamlanadi hamda tizimli xavflar kamayadi. 2026-yilning dekabr oyidan boshlab mamlakatimizdagi barcha sug'urta kompaniyalari Solvency II tizimi o'tadi [8].

Shu tariqa, sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy natijalarini chuqur tahlil qilish, daromadlar tarkibini takomillashtirish va investitsiya faoliyatini rivojlantirish orqali ularning moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta faoliyatida hisob va tahlilning zamonaviy usullarini qo'llash moliyaviy ko'rsatkichlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, statistik va ekonometrik yondashuvlar sug'urta mukofotlari, sug'urta tovonlari hamda xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi hamda rentabellik darajasini aniq baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos hisob yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va tahlil metodlarini amaliyotga joriy etish sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, risklarni samarali boshqarish hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada sug'urta bozorining raqobatbardoshligi ortadi va uning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Xushmuradov Oman Qarshi davlat texnika universiteti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası professor v.b., i.f.n. / Хушмурадov Оман Каршинский государственный технический университет, и.о. профессор кафедры «Бухгалтерский учет и аудит», к.э.н. / Xushmuradov Oman Karshi state technical university, acting professor of the department of "Accounting and audit, PhD in economics

E-mail: o.xushmuradov@gmail.com

ORCID: 0009-0000-4214-5804

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining, 23.11.2021 yildagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2025 yildagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son qarori.
3. Temirov, F. (2023). SUG 'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Economics and Innovative Technologies*, 11(6), 49-56.
4. Хамдамов Б.К., Ибрагимов К.Ш. Совершенствование бухгалтерского учета в Узбекистане на основе международных стандартов финансовой отчетности. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 yil
5. Girdzijauskas, Stasys & Čepinskis, Jonas & Jurkonyte, Edita. (2007). MODERN ACCOUNTING METHOD IN INSURANCE TARIFFS - NOVELTY ON THE INSURANCE MARKET. *Technological and Economic Development of Economy*. 13. 179-183. 10.3846/13928619.2007.9637797.
6. "O'zagrosug'urta" AJning hisobot materiallari. 2020-2025-yillar.
7. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qonuni, 23.11.2021-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrda "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-sonli qarori.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz